

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA
QO‘MITASI BOJXONA INSTITUTI**

Qo‘l yozma huquqida

UO‘K: 339.543.3 (575.1)

PARDAYEV TULKIN NASIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy maslahatchi: iqtisod fanlari
doktori, professor T.S.Malikov**

Toshkent shahri – 2025- yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-BOB. BOJXONA TO‘LOVLARINI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIGA UNDIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	16
1.1. Bojxona to‘lovlarining mohiyati, ularni qo‘llashning obyektiv zarurligi va ahamiyati	16
1.2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to‘lovlari va ularni undirishning uslubiy jihatlari	31
1.3. Bojxona to‘lovlarini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari va muhim nazariy jihatlari.....	40
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	49
2- BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	51
2.1. O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarining turlari va stavkalarni optimallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlili.....	51
2.2. Bojxona organlari tomonidan undirilgan va Davlat budjeti daromadlariga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tahlili.....	62
2.3. Bojxona to‘lovlarini undirishda berilgan imtiyoz va preferensiyalar tahlili va muammolar	76
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	87
3- BOB. BOJXONA TO‘LOVLARI MIQDORIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING TURKUMLANISHI VA ULARNING EKONOMETRIK TAHLILI	89
3.1. Bojxona to‘lovlari miqdoriga ta’sir etuvchi asosiy omillar va ularning turkumlanishi.....	89
3.2. Tovarlarining bojxona qiymati va uni aniqlashni takomillashtirish	102
3.3. Bojxona to‘lovlari miqdoriga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	118
3.4. O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari miqdorini ekonometrik model asosida prognozlashni baholash	132
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	148
4-BOB. BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISHDA AXBOROT DASTURLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	151
4.1. Bojxona to‘lovlarini undirishda Bojxona qo‘mitasi YAAT dasturlarining roli va ahamiyati	151
4.2. Bojxona to‘lovlarining undiriluvchanligini ta’minlash jarayonida foydalanilayotgan elektron dasturlar va mobil ilovalarni takomillashtirish choralari	166
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar	178

5-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	182
5.1. Rivojlangan davlatlarda bojxona to‘lovlarini undirish tajribalari va ulardan xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari ..	182
5.2. Bojxona to‘lovlaridan qarzдорlikning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish hamda undirish choralari.....	201
5.3. Xalqaro integratsion jarayonlarda bojxona to‘lovlarini qo‘llash va undirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari	213
XULOSA.....	230
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	236
SHARTLI BELGILAR	247
ILOVALAR.....	248

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonning barcha mamlakatlarida tashqi savdo hajmining jadal sur'atlarda o'sib borishi tashqi savdoni soddalashtirish, xususan, mamlakat iqtisodiy va milliy xavfsizligini ta'minlagan holda bojxona to'lovlarini qo'llash borasidagi chora-tadbirlarni taqozo etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "bojxona to'lovlari davlat daromadlarining Yevropa Ittifoqida 11-13 foizini, Rossiya Federatsiyasida 28-30 foizini, Xitoy Xalq Respublikasida 3,2 foizni tashkil etmoqda"¹. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Jahon savdo tashkiloti hamda Jahon bojxona tashkiloti tomonidan "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro Kioto konvensiyasi, "Jahon bojxona tashkilotining Xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirishning hadli standartlari qoidalari", "Savdo jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha Jahon bojxona tashkiloti kelishuvi", Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv "GATTning 7-moddasini qo'llash to'g'risida kelishuv" kabi xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan². Bugunga kelib, ko'plab mamlakatlarda mazkur konvensiya va kelishuvlar milliy qonunchilikka joriy qilindi. Bu esa jahonda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish muammolarining dolzarbligini namoyon etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bojxona sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali bojxona tartib taomillariga ketadigan vaqt va mablag'ni tejashga zamin yaratuvchi yangi mexanizmlarini joriy etish, tartib-taomillarni yanada soddalashtirish natijasida bojxona to'lovlarini undirishni samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ratsionallashtirilgan va avtomatlashtirilgan to'lov tizimlarini joriy etish, bojxona

¹ Customs duties mean revenue. https://ec.europa.eu/taxation_customs/customs-duties-mean-revenue_en ; Minfin predvaritelno otsenil ispolneniye federalnogo byudjeta v 2021 godu.; <https://regnum.ru/news/economy/3481500.html>; China - Customs And Other Import Duties (% Of Tax Revenue); <https://tradingeconomics.com/china/customs-and-other-import-duties-percent-of-tax-revenue-wb-data.html>.

² Mejdunarodnaya Konvensiya (Kioto, 1973) "Ob uproshchenii i garmonizatsii tamojennyyh protsedur". <http://www.wcoomd.org>; Ramochnyye standarty. - https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/ru/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/ru_safe_framework.pdf?la=fr; Soglasheniye VTO ob uproshchenii protsedur tovgovli. https://tfig.unece.org/RUS/contents/WTO_Agreement.htm; Generalnoye soglasheniye po tarifam i tovgovle. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

organlari o'rtasida axborot almashinuvini osonlashtiruvchi raqamli platforma va elektron hukumat tizimlarini takomillashtirish, bojxona to'lovlariga tegishli milliy va xalqaro qonun-qoidalarni uyg'unlashtirish, ilg'or amaliyotlar va standartlarni tatbiq etish, moliyaviy nazorat va hisobotdorlikni oshirish, soha kadrlari malakasini oshirish, bojxona jarayonlarida korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda tashqi savdo rivojlanishini rag'batlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berish, mavjud ma'muriy va texnik to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilib, bojxona organlari tizimida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda 2019-yilda JSTga qo'shilish jarayonining qayta boshlanishi, 2020-yil 21-dekabrda "Bojxona tartib taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyasi (Kioto konvensiyasi) ratifikatsiya qilinishi mamlakatimizda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini xalqaro talablarga moslashtirilishida muhim qadam bo'ldi. Mazkur sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, mamlakatimiz joriy davrgacha JSTga a'zo bo'lmaganligi, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini xalqaro talablarga to'liq joriy etilmaganligi, bojxona to'lovlarini undirishning nazariy-uslubiy jihatlarini o'rganishni tadqiq etish hamda takomillashtirishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 27-iyundagi PF-5755-son "Soliq va bojxona imtiyozlari berishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 160-son "O'zbekiston Respublikasi

bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi" nizam, 2020-yil 9-noyabrdagi 700-son "Bojxona yig'irlari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Tashqi savdoda bojxona to'lovlarini qo'llash mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy va biznes tadqiqotlari markazi ((The center for Economic and Business research (CEBR), USA), Fiskal tadqiqotlar instituti (Institute of Fiscal, Buyuk Britaniya), Oksford universiteti (University of Oxford, Buyuk Britaniya), Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi (National Bureau of Economic Research, USA), Garvard universiteti (Harvard University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA) Kaliforniya universiteti (University of California, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universitetida (Финансовый университет при Правительстве РФ, Россия) Rossiya Bojxona akademiyasi (Rossiya)da tadqiqotlar olib borilgan.

Tashqi savdoni bojxona to'lovlari orqali tartibga solish mexanizmini takomillashtirish hamda ularning mamlakat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridagi ulushini oshishiga erishish yuzasidan jahonda bir qator ilmiy tadqiqotlar natijasida

³<http://www.worldbank.org/> - Jahon banki rasmiy sayti. <https://cebr.com/> - Iqtisodiy va biznes tadqiqotlari markazi rasmiy sayti. <http://www.nber.org/> - Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi rasmiy sayti. www.ifs.org.uk - Fiskal tadqiqotlar instituti rasmiy sayti. www.ox.ac.uk - Oksford universiteti rasmiy sayti. www.harvard.edu - Garvard universiteti rasmiy sayti. www.uchicago.edu - Chikago universiteti rasmiy sayti. www.universityofcalifornia.edu - Kaliforniya universiteti rasmiy sayti. www.stanford.edu - Stenford universiteti rasmiy sayti. <http://www.fa.ru> - Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti rasmiy sayti. <https://academy.customs.gov.ru> - Rossiya bojxona akademiyasining rasmiy sayti.

eksportga yo‘naltirilgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq va bojlar orqali qo‘llab-quvvatlash natijasida iqtisodiy samaradorlik darajasining oshishi uslubiyoti yaratilgan (University of Chicago, USA); YAIMga nisbatan soliq yukining oshishi natijasida real YAIM hajmining kamayishi me‘yorlari ishlab chiqilgan (University of Chicago, AQSH); iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi soliqlarning, shuningdek, bojlarning tarkibiy tuzilmasi, “Soliqlar, bojlar va iqtisodiy o‘sish” shkalasi ishlab chiqilgan (Institute of Fiscal, Buyuk Britaniya).

Bugungi kunda jahon miqyosida tashqi savdoda bojxona to‘lovlarini qo‘llash mexanizmini takomillashtirishga doir quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: bojxona to‘lovlari stavkalarini qo‘llash, bojxona to‘lovlarini hisoblash metodikasini takomillashtirish, bojxona to‘lovlariga ta’sir etuvchi omillar va ulardan samarali foydalanish, bojxona to‘lovlarini undirish jarayonida risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri – tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida ishlatiladigan tarif va notarif usullari, shu jumladan, o‘ziga xos dempingga qarshi, kompensatsiya, maxsus bojlar, aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi iqtisodiy, ma’muriy va texnik choralarning nazariy-uslubiy jihatlarini S.L.Bryu, V.Yu.Grechkov, V.G.Draganov, A.Kireev, Dj.Keyns, Ye.E.Kostik, K.R.Makkonell, L.Mizes, M.Porter, Yu.N.Rostovskiy, J.Saks, V.G.Svixunov, E.A.Tixonovich, M.Fridmen, Ye.D.Xalevinskaya, E.Chemberlin kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan hamda Umumjahon savdo tashkilotining me‘yoriy hujjatlarida tadqiq etilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan⁴.

⁴ Брю С.Л., Макконелл К.Р., Экономикс: принципы, проблемы и политика: В 2-х томах. Пер. с англ. -М, 1997. -799 с.; Мизес Л. Антикапиталистическая ментальность; Пер. с англ. — Нью-Йорк : ТЕЛЕКС, 1992. — 79с.; Портер М. Международная конкуренция : Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. -М: "Международные отношения", 1993. -896 с.; Сакс Д.Д. Макроэкономика. Глобальный подход : Пер. с англ./ Сакс Д.Д., Хайек, Ф. А. Частные деньги : Пер. с англ./М: Ин-т Национальной Модели Экономики , 1996. - 230с.; Фридмен М. Основы монетаризма: Пер.с англ. -М: Теис, 2002. -175с.; Халевинская Е.Д. Вавилова Е.В. Всемирная торговая организация и российские интересы. -М.: Магистр, 2009. -367с.; Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции: реориентация теории стоимости; Пер. с англ. — Москва : Экономика, 1996.-351с.; Драганов В.Г. Таможенно-тарифная стратегия присоединения России к ВТО: Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук. — М.:1999.-31 с.; Киреев А. Международная экономика В двух частях. -М: "Международные отношения", 2002. -415с.; Костик Е.Е. Развитие таможенного

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va uni tartibga solish hamda bojxona faoliyati samaradorligini oshirish, bojxona to'lovlarini qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari va mavjud muammolarning amaliy yechimlari iqtisodchi olim va mutaxassislardan A.Alimov, Z.Adilova, A.Vahabov, T.Malikov, N.Maxmudov, O.Olimjonov, A.Jo'rayev, R.Karimov, N.Nuraliyev, S.G'ulomov, N.Sirojiddinov, Sh.Toshmatov, R.Turapov, F.Sharipov, N.Zufarova, S.Aripov, R.Shodiyev, A.Qodirov, Sh.Azizov, Z.Makkamov va boshqalarning ilmiy-tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁵.

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarida bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va davlat budjeti daromadlar qismiga o'tkazish mexanizmining ayrim jihatlari o'rganilgan. Biroq, hali bu sohada bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi tizimli ravishda hamda kompleks holda qamrab olgan, metodologik jihatdan asoslangan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bular ilmiy-tadqiqot ishining muhimligi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

сотрудничества государств — членов ЕвразЭС: Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук — М., 2005.-28с.; Свихунов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. Учеб. пособие. — М.: Экономист, 2004.—455с.; Тихонович Э.А. Таможенно-тарифный компонент национальной внешнеторговой политики. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. —Волгоград, 2002.-125с.

⁵ Алимов Р.О., Расулов А.Ф., Кодиров А.М. ва бошқ. Ред. Гуломов С.С. Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт/ -Т.: Konsauditinform-Nashr, 2006. -440б.; Адилова З.Д.Халқаро бозорларга экспорт маҳсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегияси.Иқт.фан.док. илмий даража олиш учун ёзилган диссертация автореферати -Т.:2008.-20б.; Вахабов А.В., Мировая экономика. В 2-х.т.-Т.: Национальный Университет Узбекистана, 2006.Т.1.302с.; Вахабов А.В., Приоритетные направления либерализации внешнеэкономических связей в странах с переходной экономикой., В 2-х.т.-Т.:2002.Т.1.С.122-131.; Вахабов А.В., Теоретические аспекты развития международной экономической интеграции и факторы, определяющие ее динамику.-Т.: Молия, 2006.-448с.; 59. Маликов Т. С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик.-Т.: Iqtisod-moliya. 2019.;Маликов Т. С. Молия: назарий асослар. Ўқув қўлланма.-Т.: Iqtisod-moliya. 2021. Жўраев А.С., Солиқ-бюджет сиёсати яхлитлиги ва унинг давлат бюджети даромадлари ижросидаги аҳамияти // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 2005.-№1-2. 14-16б.; Жўраев А.С., Солиқ-бюджет сиёсатининг бюджет ижросидаги аҳамияти // Бозор, пул ва кредит. 2006. - №1 —Б. 17-18б.; Каримов Р. Узбекистан на пути к новой экономике/ Экономический вестник Узбекистана. -Ташкент, 2002. - № 9. - С. 3-6; Нуралиев Н.Н. Либерализация внешней торговли Кыргызской Республики в условиях переходной экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук -Т.:2006.-20б.; Сирожиддинов Н. Узбекистан: путь к экспорториентированному развитию/ Мировая экономика и международные отношения. -М, 2002. - №7. - С. 88-92; Тошматов Ш. А., Роль налогов в привлечении иностранных инвестиций в экономику Узбекистана.// Экономика и финансы.- М.: 2007.- №3.-с.69-72.; Тошматов Ш. А., Влияние акцизного налога на спрос и предложение.// Экономика и финансы.-М.: 2007.-№12. с.69-71.; Н.Зуфарова. Ташқи савдо фаолиятининг тариф бошқарувида бошхона тарифи вазифалари. Ж.Иқтисод ва молия №7 2011й.13-16 бетлар.Шодиев Р.Х. Жаҳон иқтисодиёти номли дарслик. Т.: Гулом Ф. наشريёти. 2005.2006. Турапов Р.А. Ўзбекистон Республикасида бошхона фаолияти самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари.: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2006 й. -38 б. Шарипов Ф.Ф. Ўзбекистонда ташқи савдони тартибга солишда солиқ сиёсатини такомиллаштириш.: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2019 й. Арипов С. Ташқи савдони бошхона тўловлари орқали тартибга солишни такомиллаштириш.: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2009 й. -20 б.